

Amir Xusrav Dehlaviyning “Daryo-ye abror” asari qasida janrining noyob namunasi sifatida

Abdurahmonov Mahmudxon Sobitxon o'g'li.

mahmudkhanabduraxmonov@gmail.com

*O‘zbekiston Xalqaro Islom akademiyasi Matnshunoslik va adabiy
manbashunoslik yo‘nalishi magistranti.*

Annotatsiya: Amir Xusrav Dehlaviyning “Daryo-ye Abro” asari qasida janrining ajoyib namunasi. Bu asarda Xusravning shoir sifatidagi benazir mahorati, o‘zining murakkab qofiya sxemalari va murakkab metaforalari bilan namoyon bo‘ladi. She‘r muhabbat, ma‘naviyat, tabiat go‘zalligi mavzularini o‘rganadi. Xusravning jonli tasvir va hissiyotli tildan foydalanishi o‘quvchida hayrat va hayrat tuyg‘ularini uyg‘otadi. “Daryo-ye abro” fors mumtoz she‘riyatining eng go‘zal namunalaridan biri sanaladi va mintaqa adabiy an‘analariga doimiy ta‘sir ko‘rsatgan.

Kalit so‘zlar: Xusrav Dehlaviy, Daryo-ye abror, shoir, benazir, sher, muhabbat, fors tili.

Kirish Fors adabiyotida qasida eng mashhur va keng tarqalgan she‘riy janrlardan biridir. Fors she‘riyati tarixida qasida yozmaydigan shoirni topish qiyin. Ko‘pgina shoirlar g‘azal, ruboiy, qit‘a kabi adabiy janrlarda o‘z nomlarini ulug‘lagan bo‘lsalar ham, ular ijodida qasida ham munosib o‘rin tutadi. Dastlab yuzaga kelgan arab qasidasi ta‘sirida rivojlangan asosiy adabiy shakllar fors qasidasida o‘zligini saqlab qolgan. Qasidaning birinchi qismda lirik muqaddima bo‘lib, unda muallifning mahubidan ajralishi nola, ikkinchi qismda shoirning maqtovga sazovor bo‘lgan kishi uchun bosib o‘tgan yo‘li tasvirlangan, uchinchi maqtovlardir. Keyinchalik falsafiy qasidalar paydo bo‘ladi. Ularda ko‘plab tarixiy shaxslarning

nomlari tilga olinganligi, real voqealar ro'yxati keltirilganligi sababli qasidalar tarixchilar uchun muhim ma'lumot manbai bo'lib qoladi. Qasidada saroy she'riyatining asosiy shakli maqtov, satira-tuhmat sifatida, aktyorlik texnikasi talablari qo'llanilgan bo'lib va shuning uchun ham qasida eng mukammal, rivojlangan shakllardan biridir. Qasida timsolida shoirlar ko'pincha shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi turli hodisalarga munosabat bildirgan. Tasavvuf adabiyotida qasida yo tasavvufiy-panteistik mavzulardagi mulohaza yoki saboq madhiyasi hisoblangan. Qasida va qasidago'ydikka bag'ishlangan maxsus ilmiy asar mavjud bo'lmasa-da, tazkiralarda va A. Krimskiy, A. Yakubovskiy va Ye.E. Bertels kabi rus sharqshunos olimlarining ba'zi asarlarida yo'l-yo'lakay biror masala bilan bog'liq holda bayon qilingan fikrlar mavjud. Bular qasidago'ylikni o'rganishimizda biz uchun katta ahamiyatga egadir. Qasida va qasidago'ylik haqida ilmiy adabiyotlarda faqat epizodik ma'lumotlar keltirilgan. Ma'lumki, XII asrdan boshlab tobora kengroq yoyilib kelayotgan tasavvuf ruhidagi falsafiy qasidago'ylik XIV asrda rivojlanadi. O'rta Osiyo va Eronga mo'g'ullarning bostirib kirishi ma'lum darajada shunday ruhdagi qasidalarining ravojlanishiga sabab bo'ldi. Chunki, bosqinchilar zulmidan qutulish yo'lini topolmagan xalq ongida yagona xaloskor Allohning o'zi, faqat undan najot kutib, ungagina suyanmoq kerakligi tushunchasi singib bormoqda edi. Shuning uchun, zulmdan qutilish yo'lini izlayotgan aql-idrokka asoslangan falsafiy qasidalar ko'proq shuhrat topa boshlagan. Huddi shu davrda Nosir Xusrav va Anvari qasidalari an'anasini davom ettirgan Jaloliddan Rumiy tasavvuf ruhidagi falsafiy qasidalarining yuksak namunalarini yaratdi. Qasidago'ylikdagi bu an'analar XIV-XV asrlarga kelganda yanada kengroq rivoj topdi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Alisher Navoiy qasidalarining deyarli hammasi forsiyda bo'lib, ko'proq Xusrav Dehlaviy, Salmon Sovajiy va Abdurahmon Jomiy qasidalariga ergashib yozilgan. Mavlono Zohidiy Xusravning

"Daryo-ye abror" qasidasiga qilgan tatabbu'larining muvaffaqiyatli chiqqanligini alohida ta'kidlagan. Navoiy o'z tazkirasida, asosan falsafiy qasidalar yozish bilan shug'ullangan ko'p shoirlarni keltiradi. Amir Xusrav Dehlaviy va Jomiyga ergashib, qasidalar bituvchi Fosih Rumi, Mavlono Yusuf, Bobo Sho'rida kabi shoirlarning nomlarini ham alohida ta'kidlab o'tgan¹. Amir Xusrav Dehlaviy o'z qasidalarida barcha zamonlar uchun muhim bo'lgan ko'plab ijtimoiy axloqiy masalalarni badiiy talqin qilgan. Odil podsho orzusi, davlat mustahkamligi va mamlakat farovonligi, raiyat tinchligi, ma'rifat tantanasi, komil inson muammosi kabi g'oyalar shoir asarlarining asosiy mazmunmohiyatini tashkil etadi. Badiiy so'zning qudratini namoyon qilgan asarlari ijod ahli uchun mahorat maktabi hisoblanadi. Xusrav Dehlaviy rangbarang mavzu va janrlardagi badiiy yuksak asarlari bilan Hindistondagi forsiyzabon adabiyotning tamal toshini qo'ygan. Uning ijodi tufayli Xuroson va Movarounnaxr so'z san'atida mavjud bo'lgan barcha janrlar Hindiston adabiyotiga kirib borgan. Amir Xusrav Dehlaviyning "Daryo-ye abror" qasidasi fors tilida yaratilgan, o'z zamonida va keyingi davrlarda Hindiston, Xuroson, Eron hamda Movarounnahrning bir qator zabardast shoirlari diqqatini o'ziga tortgan qasidalardan biridir. "Daryo-ye abror" aruzning ramali musammani maqsur (foilotun, foilotun, foilotun, foilun) bahrida yozilib, bu bahr asarning asosiy g'oyasini, ya'ni shoirni qiziqtirgan bir qator muhim ijtimoiy-siyosiy masalalar, falsafiy mulohazalar, axloqiy qarashlarni ifodalashda qulay shakllardan hisoblanadi, Shuni ta'kidlash kerakki, Amir Xusrav qasidasi turli qo'lyozmalarda har xil hajmda uchraydi. Masalan, Tojikiston FA Sharqshunoslik va yozma yodgorliklar bo'limida saqlanuvchi fotokopiyada (Leningrad nusxasi) 106 bayt, Toshkent nusxasi 103 bayt hajmda uchraydi. Professor Ye.E.Bertels bu qasidani 98 baytdan iborat deb yozadi. Bu qasida bir tomondan, muallif ijod etgan davr, shu davr mutafakkirlari fikrini bilib

¹ Низомова Ф. Амир Хусрав Дехлавий ижодида рубоий жанри: Фил.ф.доктори...дисс. Тошкент, 2006. Б-45.

olishda, ikkinchi tomondan, shoirning falsafiy, axloqiy qarashlarini o'rganishda muhim manbalardan sanaladi. Shuni eslab o'tish kerakki, bu qasidada tasavvufga keng o'rin berilgan "Daryo-ye abror"da sufiylik, tarkidunyochilik motivlarining ko'rinishi tasodifiy hol bo'lmay, unda mo'g'ul istilosi va uning ijtimoiy hayotga ko'rsatgan ta'siri sezilib turadi. Amir Xusravning o'zi bu qasidani katta hajmdagi lirik va epik asarlardan ustun qo'yadi. Bu fikrni "yuz ming baytdan ortiq she'riy merosim yo'qolib ketsa-yu, mana shu qasidam saqlanib qolsa, mening fazilatim dalili uchun yetarlidir" deb aytgan fikri tasdiqlab turibdi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

- Raxmonov, E. K. o'g'li, Qobilov, F. S. o'g'li, & Berdimuradov, X. T. o'g'li. (2023). RESPUBLIKAMIZDA YETISHTIRILAYOTGAN BUG'DOY DONLARINING FIZIK-KIMYOVIY KO'RSATKICHLARINING TAHLILI. ILMIIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 2(2), 95–101. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/144>

- Qobilov, F. S. o'g'li, & Raxmonov, E. K. o'g'li. (2023). NON MAHSULOTLARINI TAYYORLASHDA QURUQ KLEYKOVINADAN QO'SHIMCHA SIFATIDA FOYDALANISH. ILMIIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 2(2), 58–63. Retrieved from <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/139>

- Sattorova, K. A. qizi, & Raxmonov, E. K. o'g'li. (2022). NON MAHSULOTLARINI SIFATINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN QO'SHIMCHALAR. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(1), 29–31. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/cf/article/view/230>

- O'G'LI, X. T. X., Berdimuradov, E. K. O. G. L., BUG'DOY, R. N. U. T., & ASOSLASH, N. T. V. CARJIS. 2022.№ 10. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/navli-un-tortishda-bug-doy-navlarini-tanlash-va-asoslash> (дата обращения: 29.03. 2023).

- Hamroyeva Sh.Sh., & Muhidova G. (2018). PEDAGOGICAL AND METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF TEACHING ENGLISH TO YOUNG LEARNERS. Мировая наука, (5 (14)), 37-39.

- Hamroyeva Sh.Sh. (2018). SIR WALTER SCOTT'S ARTISTIC SKILL IN THE EXPRESSION OF HISTORICAL FACTS AND LITERARY FICTION IN HIS HISTORICAL NOVELS. Мировая наука, (5 (14)), 35-37.